

**Jismoniy shaxslar uchun AQSh dollaridagi
“Innovatsiya” muddatli bank omonati
SHARTNOMASI**

20 __ yil «__» _____

№

_____ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankingin _____ filiali (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi _____ Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomondan, va _____ (keyingi o‘rinlarda – Omonatchi), ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Bank Omonatchining _____ (_____) AQSh dollaridagi pul mablag‘ini qabul qildi va uni 20606840..... omonat hisobvarag‘iga omonat shartlariga muvofiq joylashtirdi.

2. Omonatchiga ____ seriyali ____-son Omonat daftarchasi ochildi va unda yuqorida ko‘rsatilgan hisobvaraqla kirim qilingan omonat qiymati va boshqa tegishli ma’lumotlar o‘rnatilgan tartibda aks ettiriladi.

2-§. Omonat shartlari va hisob-kitoblar tartibi

3. Omonat muddati 24 oy, ya’ni omonatga pul mablag‘i qo‘yilgan sana: 20__ yil “__”, omonatni qaytarish sanasi: 20__ yil “__”.

4. Omonatga yilda 365 kun hisobidan yillik 5 foiz stavkada daromad hisoblanadi.

5. Ushbu Shartnoma bo‘yicha jalb qilingan omonatning foiz stavkasi uning muddati tugagunga qadar o‘zgarmaydi.

6. Omonatchi omonatga dastlabki 12 oy davomida har oyda bir marta qo‘srimcha badal kiritishi mumkin. Qo‘srimcha badalning minimal miqdori: 100 (bir yuz) AQSh dollari.

7. Omonat muddati davomida omonatning bir qismini olish ko‘zda tutilgan. Bunda omonatdagi mablag‘ qoldig‘i 1000 (bir ming) AQSh dollaridan kam bo‘lmasligi lozim.

8. Omonat bo‘yicha foiz omonat Bankka qabul qilingan kunning keyingi sanasidan boshlab omonatni Omonatchiga qaytarib beriladigan kungacha hisoblanadi.

Omonatchining omonat hisobvarag‘i xatlanganligi oqibatida Bank omonatdagi pul mablag‘idan foydalana olmagan davr uchun foiz hisoblanmaydi.

9. Omonat bo‘yicha foiz _____

(har oyda yoki omonat muddati tugagandan so‘ng kapitalizatsiyasiz)

omonat qabul qilingan chet el valyutasida to‘lanadi.

Agar omonat foizi bo‘yicha Omonatchiga to‘liq qiymatda emas, balki qoldig‘ida sent bo‘lgan foiz hisoblangan bo‘lsa, Bank sentni uning milliy valyutadagi ekvivalentida (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankingin operatsiya amalga oshirilgan kundagi kursi bo‘yicha) to‘lab beradi.

10. Omonat muddati tugagandan so‘ng omonat omonatchiga qaytariladi.

Agar omonatni qaytarish dam olish yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelsa, omonat keyingi bank ish kunida qaytarib beriladi.

11. Agar omonatchi omonatni muddati tugamasdan to‘liq qaytarib olmoqchi bo‘lsa, u bu haqda Bankni omonatni qaytarishni mo‘ljallagan sanadan kamida bir oy oldin ogohlantiradi. Bunda shartnomaning amal qilishi to‘xtatiladi, omonat muddatidan oldin qaytariladi va omonatga hisoblangan foiz quyidagi shartlar asosida to‘liq turgan oy uchun to‘landi:

a) omonat 6 oydan kam muddat davomida turgan bo‘lsa, hisoblangan foiz to‘lanmaydi;

b) omonat 6 oydan 9 oygacha bo‘lgan muddat davomida turgan bo‘lsa, omonatga yillik 4 foizlik stavkada foiz hisoblanadi va to‘lanadi;

v) omonat 9 oydan 12 oygacha bo‘lgan muddat davomida turgan bo‘lsa, omonatga yillik 4,5 foizlik stavgada foiz hisoblanadi va to‘lanadi;

g) omonat 12 oydan 24 oygacha bo‘lgan muddat davomida turgan bo‘lsa, omonatga yillik 5 foizlik stavgada foiz hisoblanadi va to‘lanadi.

To‘liq bo‘lidan oy davomida saqlangan omonatga hisoblangan foiz bekor qilinadi va to‘lanmaydi.

Omonat muddati davomida to‘langan foizning ortiqcha qismi mayjud bo‘lsa, u omonat mablag‘idan ushlab qolinadi.

12. Omonatchi omonat muddati tugagandan keyin omonatni qaytarib olmasa, mazkur Shartnoma talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat shartlari asosida uzaytirilgan hisoblanadi, keyingi amaliyot kunida uning uchun talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘i ochiladi. Omonat va u bo‘yicha hisoblangan foiz, ushbu kundan boshlab, Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘idagi shaxsiy hisobvaraqqqa o‘tkaziladi.

3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatlar

13. Bank Omonatchidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga muvofiq omonatni rasmiylashtirishda taqdim etilishi zarur bo‘lgan hujjalarni talab qilish va olish huquqiga ega.

14. Bank quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

a) omonatni, Bankni kamida bir oy oldin ogohlantirgan holda muddatidan oldin qaytarish so‘ralganda, qaytarib berish;

b) omonatni sir saqlash va u bo‘yicha ma’lumotlarni faqat O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalarda ko‘zda tutilgan hollarda taqdim etish;

v) Omonatchining omonat hisobvarag‘i bo‘yicha amaliyotlar Bank tomonidan to‘xtatib qo‘yilganda, amaliyot to‘xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchiga uning omonat hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish to‘xtatilganligi va uning sababi yuzasidan xabarnoma yuborish;

g) Omonatchining kredit va mikroqarz bo‘yicha qarzdorligini so‘ndirish uchun uning omonat hisobvarag‘idan mablag‘ Bank tomonidan Omonatchining topshirig‘isiz hisobdan chiqarilganda, mablag‘ hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchiga uning omonat hisobvarag‘idan qancha miqdordagi mablag‘ qanday sababga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko‘rsatgan holda xabarnoma yuborish.

15. Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:

a) omonatni ishonchli vakili orqali ham tasarruf etish;

b) omonatni O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga muvofiq har qanday shaxsga vasiyat qilish.

16. Omonatchi quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

a) pasport ma’lumotlari va ro‘yxatdan o‘tgan joyi o‘zgarganda o‘zgarish sanasidan boshlab 10 kun ichida Bankka yozma xabar berish;

b) O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga muvofiq so‘ralgan barcha hujjalarni Bankka taqdim etish.

4-§. Tomonlarning javobgarligi

17. Tomonlar mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

5-§. Alovida shartlar

18. Ushbu Shartnoma omonat Bankka qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

19. Mazkur Shartnoma 14-bandining “v” va “g” kichik bandlarida nazarda tutilgan xabarnomalar Omonatchiga _____

(Omonatchi tegishlisini tanlaydi: shaxsan topshirish, pochta orqali jo‘natish, elektron pochtadan

jo ‘natish, mobil telefoniga SMS yuborish, mobil telefoniga telegram kanali orqali jo ‘natish) orqali topshiriladi. Omonatchi xabarnoma yetkazish usulini Bankka shaxsan yoki pochta orqali yozma ariza taqdim etish yo‘li bilan o‘zgartirish huquqiga ega. Bunda Omonatchidan qabul qilingan ariza Bank tomonidan uning omonat hisobvarag‘i bo‘yicha yig‘majildida saqlanadi.

Xabarnomani Omonatchiga yetkazish usuli o‘zgarganligi munosabati bilan mazkur Shartnomaga o‘zgartirish kiritish talab etilmaydi.

20. Bank mazkur Shartnoma shartlariga Omonatchining huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan o‘zgartirishlarni bir tomonlama kiritishga haqli emas.

21. Omonatning qaytarilishi O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida” qonuniga muvofiq kafolatlanadi.

22. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari normalari qo‘llaniladi.

23. Tomonlar barcha kelishmovchilik va nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadi. Muzokara natijasida tomonlar o‘zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda nizo O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq sudda ko‘rib chiqiladi.

24. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzildi, uning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Omonatchida saqlanadi.

6-§. Tomonlarning pochta manzili va rekvizitlari

Bank: Manzili: _____ Tel.: _____ Bank kodi: _____ Bank hisobvarag‘i: _____ Boshqaruvchi: _____ <i>(Muhr o‘rni)</i>	Omonatchi: Manzili: _____ Tel.: _____ Pasport: _____ <i>(imzo)</i>
---	--